Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320316

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

# BUXORO VILOYATIDA TURIZM RIVOJLANISHINING STATISTIK

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi
**KARIMOV SARDORBEK BAHODIRJON O'G'LI**
E-mail: karimov_sardor@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada asosan Buxoro viloyatida turizm rivojlanishining statistik tahlil bayon etilgan. Statistik ma'lumotlarga asoslangan holda oxirgi 10 yilda Buxoro viloyatida turizm yo'anlishida sodir bo'lgan o'zgarishlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** statistic tahlil, dinamika qatorlari, turizm, xizmat ko'rsatish, infrotuzilma, reklama, joylashtirish vositalari, restoran, kadrlar tayyorlash

## ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 28.09.2022 yildagi 543-sonli qarorida hududa turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari batafsil to'xtalib o'tilgan. Bu qarorda turizmni rivolantirish uchun bir-biridan muhim bo'lgan chora-tadbirlar belgilab o'tilgan(1-jadval).

**1-jadval. 2025 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari[238]**

| T/r | Ko'rsatkichlar nomi | 2025-y. | 2026-y. |
|---|---|---|---|
| 1. | Ichki turistlar tashrifi soni (mln kishi) | 3,8 | 4,1 |
| 2. | Xorijiy sayyohlar soni (ming kishi) | 1,500 | 1 800 |
| 3. | Xizmatlar eksporti (mln AQSh doll) | 270 | 300 |
| 4. | Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming) | 7,336 | 7,976 |
| 5. | Mehmonxonalar nomyer fondining bandlik darajasi | 71,0 | 93,0 |
| 6. | Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming) | 16,182 | 17,512 |
| 7. | Mehmonxonalar soni (dona) | 238 | 258 |
| 8. | Oilaviy mehmon uylari soni (dona) | 335 | 345 |
| 9. | Xostellar soni (dona) | 71 | 76 |
| 10. | Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini oshirib borish | 10 | 11 |

[238]O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 28.09.2022 yildagi 543-sonli qarori



Published: 05.06.2026
**Cite this article:** Karimov Sardorbek Bahodirjon o'g'li (2026). Buxoro viloyatida turizm rivojlanishining statistik. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320316
*© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

Hududda turizmni rivojlantirishning dastlabki qadamlaridan biri bo’lib, bu sohaning nazariy-uslubiy muammolarini hal qilish, asosiy yo‘nalish sifatida turizmni ham, uning infratuzilmasini ham, ilmiy va marketing xizmatlarining alohida turlari ustida chuqur tadqiqotlar qilish kerak bo’ladi. Bu ishda hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan ushbu yo‘nalishni rivojlantirishni puxta o‘rgangan holda moliyalashtirish zarur[3].

## METODOLOGIYA

Maqolada asosan qiyosiy metod, xorij va mahalliy olimlarning o‘quv, ilmiy adabiyotlarni o’rganish va me’yoriy hujjatlarni tahlil qilish, xorij tajribasini qiyosiy tahlil qilish, so’ngi yillardagi ma’lumotlarni statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Asosan Buxoro statistika boshqarmasi tomonidan to’plangan statistik ma’lumotlar asosida, bu hudda turizm rivojlanish drayverlari aniqlangan bo’lib, kelajakda uni riovjlantirish, yzuaga kelayotgan kamchiliklarni bartaraf etish yo’nalishlari aniqlangan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI


Buxoroda turizm rivojlanishi va so’ngi yiilarda uchrayotgan turistik muammolar va ularning yechimi to’g’risida ko’pgina mahalliy olimlar o’z ilmiy ishlarida aks ettirishmoqda. Jumladan tadqiqotchi Yoriyeva F.M o’z ilmiy maqolalarida Buxoro viloyati boshqa hududlar orasida mavjud turli imkoniyatlariga ko‘ra O‘zbekistonning mashhur sayyohlik yo‘nalishlaridan biri sifatida tanilgani. turizm sohasida bir qancha turistik xizmatlarga asoslangan turizm faoliyati muhim o‘rin tutishi, bu esa turizmning boshqa turlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat ekanligi haqida to’xtalib o’tgan. [4].

Norboyev U.T esa Buxoro viloyatining turli noyob va jozibali tabiat manzaralari, agrolandshaftlari, diqqatga sazovor bo‘lgan madaniy va tarixiy obidalari rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirishga muhim asos bo‘ladi. Mazkur tarmoqni rivojlantirishning geografik asoslarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Buxoro viloyati hududlarining turistik imkoniyatlarini aniqlash va turizmning o‘ziga xos turlarini tashkil etishning ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir deb ta’kidlab o’tganlar [7].

## NATIJA VA MUHOKAMA


2017 yilda Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan turistlar soni 1.4 million, 2018-yilda esa 2.5 mln, 2019-yilda esa 3.6 mlnga yetgan. Koronavirus pandemiyasi sababli 2020-yilda turistlar soni ancha pasaygan, ya’nikim 250 ming sayyoh tashrif buyurgan. Keyingi yillarda esa hukumat tomonidan amalga **1-rasm. 2017-2023 yillarda Buxoroga tashrif buyurgan sayyohlar soni (mln kishi)**[239]

[239] Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi ma’lumotlariga asoslangan holda muallif ishlanmasi




oshirilgan sa’y-harakatlar tufayli 2021-yilda 2.2 mln, 2022-yili 3.5 mln sayyoh, 2023-yili esa bu ko’rsatgich 4.87 mlnga yetdi (1-rasm).

Bu digrammada keltirilgan sayyohlar ko’rsatgichini qit’alar bo’yicha tahlil qiladigan bo’lsak, 7 yil davomida Yevropa davlatlaridan 930 814, Amerika qit’asidan 95 385, Osiyo qit’asidan 664 211, MDH davlatlaridan 1 290 660 nafar sayyoh va boshqa davlatlardan 33 830 nafar sayyoh Buxoro viloyatiga tashrif buyurishgan. Asosan sayyohlarning kamayishi 2020-2021 yillarda bo’lgan. Bunga albatta butunjahonda bo’lgan Koronavirus epidemiyasi sabab bo’lgan. Keyin yillarda esa hukumat tomonidan olib borilgan to’g’ri siyosat natijasida viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar soni yana o’z o’rniga kelgan. (2-rasm).





**2-rasm. 2017-2023 yillarda Buxoro viloyatiga qit'alar kesimida tashrif buyurgan sayyohlar soni[240]**

Bularning barchasi yildan yilga infrotuzilmaning yaxshi yo’lga qo’yilganini sabab qilishimiz mumkin. Chunki turfirmalar soni, joylashtirish vositalari,

[240] Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi ma’lumotlariga asoslangan holda muallif ishlanmasi

transport, ovqatlantirish obyektlari, diqqatga sazovor joylar ham yildan yilga ortib borishi, keyingi yillarda sayyohlar sonining yanada oshishiga olib keldi. Quyidagi diagrammalarda bu ko’rsatkichlarni ko’rishimiz mumkin.


3-rasmda 2017-2023 yillar oralig’ida umumiy joylashtirish vositalari va shulardan mehmoxnoanlar, mehmon uyi va oilaviy mehmon uylari alohida ajratib o’tilgan. 2017-yilda umumiy joylashtirish vositalari 114 ta shulardan 108 tasi mehmonxona shulardan 8 tasi mehmon uyi va oilaviy mehmon uylari, 2018-yilda 168 ta joylashtirish vositalari shulardan 126 tasi mehmonxona shulardan36 tasi mehmon uyi va oilaviy mehmon uylari va yillar davomida o’sib borish tartibida 2023-yilda 541 ta joylashtirish vositalari shulardan 197 tasi mehmonxona shulardan 267 tasi mehmon uyi va oilaviy mehmon uylariga yetgan.




**3-rasm. Umumiy joylashtirish vositalari soni[241]**


4-rasmda esa Buxoro shahridagi turistik kompaniyalar soni ifoda etilgan. Yillar kesimida tahlil qiladigan bo’lsak 2017-yilda 41 ta, 2018-yilda 56 ta, 2019-yilda 115 ta, 2020-yilda 118 ta, 2021-yilda 121 ta, 2022-yilda 120 ta va 2023-yilda esa 142 tani tashkil etgan. Asosan bu tursitik kompaniyalar mahalliy sayyohlarni jalb qilish bo’yicha faol ishlar olib borganlar. Kirish turizmi uchun esa guruh bo’lib turlar tashkil qilingan bo’lib, asosan MDH davlati vakillariga sifatli xizmatlar ko’rsatilgan.

[241] Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi ma’lumotlariga asoslangan holda muallif ishlanmasi




**4-rasm.**
**Buxoro shahridagi turistik kompaniyalar soni[242]**

5-rasmda esa Buxoro turistlar tashrif buyuradigan umumiy ovqatlantirish korxonlar soni ifoda etilgan. Yillar kesimida tahlil qiladigan bo’lsak 2017-yilda 18 ta, 2018-yilda 21 ta, 2019-yilda 73 ta, 2020-yilda 87 ta, 2021-yilda 90 ta, 2022-yilda 107 ta va 2023-yilda esa 116 tani tashkil etgan




**5-rasm.**
**Turistlar tashrif buyuradigan umumiy ovqatlantirish korxonlari[243]**

Shu bilan birga hudduda turizm muammosi sayyohlik kompaniyalari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining pastligidir. Ko‘pincha xodimlarning noprofessionalligi va mehmondo‘stligi, shuningdek, xorijiy tillarni yetarli darajada bilmasligi kuzatiladi. Bu esa sayyohlarda xizmatlar sifatidan qoniqmaslik va umuman olganda haqida salbiy taassurot uyg‘otadi[2].

[242] Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi ma’lumotlariga asoslangan holda muallif ishlanmasi
[243] Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi ma’lumotlariga asoslangan holda muallif ishlanmasi

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Buxoro viloyatida turizmni rovlantirishda birinchi navbatda turizm infrtuzilmasini qayta ko’rib chiqish maqsadga nuvofiq bo’ladi. Chunki yuqorida ata’kidlab o’tilgandek hali turli xil yo’nalishlarida bajariladiga ishlar talaygina hisoblanadi. Hsuning uchun ko’pgina tursitik faoliyatlardan birinchi navbatda xizmat ko’rsatish sifatini oshirish, yangi turistik yo’nalishlarni yo’lga qo’yish kelajakda turizm sohasini yanada rivojlantirshga sabab bo’ladi.

## Adabiyotlar ro’yxati


1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 28.09.2022 yildagi 543-sonli qarori
2. Сундова Д. А. (2023) ПРОБЛЕМЫ ТУРИЗМА В РОССИИ // Научные высказывания. №23 (47). С. 30-34.
3. Yoriyeva, F. (2024). O ‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida).
4. ERALOV, A. (2024). BUXORO VILOYATIDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. *News of UzMU journal*, *1*(1.2), 8-11.
5. Komilov Z. Turizm – Buxoro iqtisodiyotining muhim drayveri. Turkic world. 2023-yil 10-may soni
6. Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi (2023). Buxoro viloyatida turizm sohasi ko’rsatgichlari. Buxoro.1(1, 15-20)


IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —